



## QADIMGI TURKIY MONIYLIK ADABIYOTI NAMUNALARI TALQINI VA TADQIQIDAGI O'ZIGA XOSLIK

**Rahmonov Javohir**

GulDU Adabiyotshunoslik yo'nalishi 2- kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5702538>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-noyabr 2021  
Ma'qullandi: 10- noyabr 2021  
Chop etildi: 15- noyabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

*moniylik adabiyoti,  
"Xuastuanift" , moniylik  
she'rlari, turkiy xalqlar*

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada qadimgi turkiy moniylik oqimi she'rlari hamda moniylik adabiyotining badiiy yuksak namunalaridan hisoblangan "Xuastuanift" (Moniylar tavbanomasi) talqini va tadqiqi xususida so'z yuritilgan.*

Qadimgi turkiy adabiyot ko'p qatlamli, turli mazmundagi manbalarga tayanishi bilan diqqatga sazovordir. Qolaversa, turkiy xalqlar yashagan zamindagi keng ommaga to'liq ma'lum bo'lmagan, etib bormagan shunday yozma manbalar borki, bu yozma manbalarning turkiy xalqlar adabiyoti tarixida tutgan o'rnini belgilamasdan turib, qadimgi turkiy xalqlarning ma'lum tarixiy bosqichdagi madaniy, ijtimoiy-siyosiy mavqeini belgilab bo'lmaydi. Milodning boshlaridagi davr mafkurasi, jamiyatdagi ma'naviy bo'shliq aynan shu asarlar orqali to'ldirildi. Jamiyatga komil insonni etkazib berishday mas'uliyatli vazifani moniylik oqimi va bu oqimdagi adabiyot bajardi. SHu boisdan moniylik oqimining va uning ta'sirida yozma adabiyotning paydo bo'lishi tasodif emas, balki zarurat bo'lgan edi. Moniylik oqimidagi adabiy yodgorlikning bizga etib kelgan namunasi "Xuastuanift"

(Moniylarning tavbanomasi) va bir qator moniylik she'rlari bunga misoldir.

Moniylik ta'limoti xitoylik Moniy ibn Fatak (216-276) nomi bilan bog'lanadi. Uning ta'limoti koinotda nur bilan zulmat o'rtasida kurash bo'lishiga asoslanadi. Shu sababli ham nur – Quyosh, Oy, ya'ni nur taratuvchi osmon jismlari muqaddas sanaladi va ularga tangri nomi bilan sig'iniladi. Nur va zulmat o'z mantig'ini yaxshilik va yomonlik kurashida topadi. Moniylik VIII asrda uyg'urlar o'rtasida asosiy din sifatida tarqalgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Buguxon 762 yilda Chin (Xitoy)ga safar qiladi. U yerda Moniy rohiblari bilan tanishadi, mamlakatiga qaytishida rohiblarni o'zi bilan birga Qorabolg'asun shahriga olib keladi. Moniylik turkiy adabiyot rivojiga ta'sir ko'rsatgan dinlardan biridir. Bu oqimning ta'sirida turkiy adabiyotda «Xuastuanift» («Moniylar



tovbanomasi») asari yuzaga kelgan. Uning qadimgi turkiy tildagi uchta nusxasi ma'lum. Ulardan London va Berlin nusxasi moniy, Sankt-Peterburg nusxasi esa eski uyg'ur yozuvida bitilgan. Asarning yaratilish davri V.V.Radlov fikricha, taxminan V asr, S.Ye.Malov xulosasiga ko'ra VII asrga to'g'ri keladi. O'zbek olimlaridan professor N.Rahmonov tadqiqotlarida «Xuastuanift»ning g'oyasi, tuzilishi, ahamiyati keng o'rganilgan. Asar moniy jamoasi a'zolarining madhiyasi, ayni paytda nizomi ham hisoblanadi. «Xuastuanift» 15 bo'limdan iborat. Kitobning ikkinchi bo'limida Kun va Oy tangrilarning moniylikdagi vazifalari ko'rsatiladi hamda ularning haqiqiylikini tan olishga chaqiriladi. S.Ye.Malovning «Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar» kitobida ham moniylikning tangriga tovba-tazarrulari bitilgan ibodatlaridan parchalar keltirilgan.

Moniylik oqimi bir qator she'rlarni ham yuzaga keltirdi. Bu she'rlarda Moniyning

shaxsiyati va u yaratgan oqimning aqidalari madh qilinadi. Moniy shaxsi esa deyarli hamma she'rlarda bor. Moniyga buyuk iloh sifatida hamdu sanolar aytiladi.

Moniylik she'rlarining sanasi aniq emas, lekin bir nechi yuz yillar davomida bu she'rlar yaratilganini taxmin qilish mumkin. Turk xoqonligi davrida, bu xoqonlik tugab, uning o'rniga turkiy qavmlarning eng katta qabilalaridan uyg'urlar hokimiyat tepasiga kelgan davrda ham moniylik she'rlari yaratildi. Bu tarixiy jarayon VII-IX asrlar boshlariga to'g'ri keladi. Barcha moniylik she'rlarining g'oyasi va maqsadi bir-biriga yaqin bo'lgani uchun u yoki bu timsol she'rdan – she'rga ko'chaveradi. “Xudodan shafqat tilash” yoki “narigi dunyoda huzur-halovatga erishish”ning tashvishigina emas, balki moniylik oqimini barcha ta'sirchan vositalar orqali targ'ib va tashviqi qilish muhim rol o'ynadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduraxmonov A. “Turkiy adabiyotning qadimgi davri” T. 2005
2. Nihad Sami Banarli. Resimli Turk Edebiyati tarihi. – Istanbul: Milli Egitim Basimevi, 2001.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)